

Ilmiy-tadqiqotchi
ayollar ko'rsatkichi

Tabiiy fanlar
3157

Texnika fanlari
1643

Tibbiyot fanlari
2176

Qishloq xo'jaligi fanlari
607

Ijtimoiy-gumanitar fanlar
5401

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

10 (16463)
2022-yil, 9-mart
chorshanba

[/yoshlarovoziuz](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Infografika
3-bet

Kimlar yoshlar yetakchisi
lavozimiga tayinlanadi?

Yetakchi minbari
4-bet

Mahalla raisiga
"qanot"miz

Talabalar hayoti "Bizni ham eshiting!"
7-bet



batafsil
2-bet →

“ZULFIYA” –
*bilim, intellekt,
tashabbus!*

Xalqaro kongress markazida
8-mart – Xalqaro xotin-qizlar
kuniga bag'ishlangan bayram
tadbirida Zulfiya nomidagi dav-
lat mukofoti sovrindorlariga dip-
lom va ko'krak nishonlari tanta-
nali ravishda topshirildi.

MEHR-OQIBAT VA SADOQAT TIMSOLI, XONADONLARIMIZ

FARISHTASI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-martdagi "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qaroriga binoan, o'zining iqtidori va ibratli faoliyati bilan yoshlarga o'rnatilgan bo'lib kelayotgan, turli soha va tarmoqlarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarayotgan, chuqur bilim va intellektual salohiyatini namoyon etib, muhim g'oya va tashabbuslarni ilgari surayotgan, ijtimoiy hayotda faollik ko'rsatayotgan 28 nafar qiz ushbu davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ayollarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularga g'amxo'rlik qilish milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi sanaladi. Ular bejiz yasharish va yangilanish fasli – bahorga qiyoslanmaydi. Mamlakatimizda loqar, irodali, ishbilarmon, iste'dodli xotin-qizlar doimo e'tirof etilib, e'zozlanadi.

Xalqaro kongress markazida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayollarni samimiy tabriklab, ularga yuksak ehtiromini bildirdi.

– Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda xalqni rozi qilish maqsadi yo'lida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning o'qishi, ishlashi, salomatligi, oilasi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda.

Bu maqsadlar Taraqqiyot strategiyasining ham muhim yo'nalishlaridan biri. Shunga muvofiq, 1-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar belgilandi. Bu vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirish maqsadida Bosh vazir o'rinbosari lavozimi qayta tiklandi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Respublikadagi 9,5 mingga yaqin mahalla raisining xotin-qizlar va oila bo'yicha o'rinbosarlari ham qo'mita tizimiga o'tkazildi. Har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilindi. Bu orqali, opa-singillarimizning muammolari, dardu tashvishlari bilan doimiy shug'ullanadigan adolatli va samarali tizim yaratildi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilinadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan, obro'-e'tiborli ayollarni o'z safida bir-lashtirgan "Oqila ayollar" harakati tashkil topmoqda. Shuningdek, barcha mehnat jamoalarida xotin-qizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun "Ayollar kengashlari" tuzilmoqda.

Tadbirkor xotin-qizlarni yanada ko'paytirish maqsadida "Bizneschi ayollar" dasturi qabul qilinib, uning doirasida 8 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

Shuningdek, joriy yilda ipoteka kreditlari bo'yicha beriladigan subsidiyalarning 40 foizi xotin-qizlar uchun ajratiladi. Bu muhtoj ayollarni 12 mingta qulay uy-joy bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Tariximizda ilgari bo'lmagan bunday keng ko'lami ishlar ijrosi uchun 15 trillion so'm mablag' yo'naltiriladi.

– Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz xotin-qizlarga murojaat qilib, ularni buyuk ishlarga ruhlantirdi:

– Biz mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirish uchun, yangi tarixiy davrga qadam qo'ydik. Farzandlarimiz qalbiga ulug' maqsadlar, olijanob g'oyalarni singdirish – barcha O'zbekiston onalarining sharafli burchidir. Yuksak fazilatli, mard va jasur, vatanparvar yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, albatta, sizlarga bog'liq. Bu – yorug' kelajakka yo'naltirilgan eng katta investitsiya va bitmas-tuganmas boylikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 5 martdagi farmoniga muvofiq bir guruh xotin-qizlar yuksak unvon, orden va medallar bilan, Prezident qaroriga binoan esa yigirma sakkiz nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Bayram tadbirida ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

– Barchangizni yana bir bor bugungi bahor va nafasat, go'zallik va latofat bayrami bilan samimiy tabriklayman. Sizlarga dunyodagi eng bebaho boylik – oilaviy baxt-saodat, tinchlik-xotirjamlik, farzandlar va

nabiralar kamolini ko'rib yurish quvonchi hamisha yo'bo'lishini tilayman. Qalbingiz doim bugungi bahordek yashnab tursin, – dedi Prezident.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan xotin-qizlar, turli vazirlik va idoralarda xodimlari fayzli dasturxon atrofida bayramni nishonladi. Tadbirida chet ellik diplomat ayollar, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalar vakillari ham ishtirok etdi.

Bayram tantanali konsert dasturi bilan davom etdi.

**Zulfiya
nomidagi
Davlat mukofoti
sovrindorlarining
har biriga bazaviy
hisoblash miqdorining
50 baravari
miqdorida pul
mukofoti
beriladi.**





KIMLILAR


MAHALLADAGI YOSHLAR YETAKCHISI LAVOZIMIGA TAYINLANADI?

Yetakchi lavozimiga nomzodlar tumanlar /shaharlar hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

Lavozimga yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlar bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar tayinlanadi.

Yetakchining oylik ish haqi miqdori u birlashtirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilandi:

xonadonlar soni **500 tagacha** bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining **5 baravari** miqdorida;
xonadonlar soni **501 tadan 1 000 tagacha** bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining **5,5 baravari** miqdorida;
xonadonlar soni **1 000 tadan** ortiq bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining **6 baravari** miqdorida.



Yetakchini rag'batlantirish

Har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishayotgan mamlakat bo'yicha eng ilg'or **100 nafar** yetakchilar bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

faoliyatini samarali tashkil etayotgan, o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan yoshlarga namuna bo'layotgan va ularga yetakchilik qilayotgan yetakchilar "Yangi O'zbekiston islohotchisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi;

faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, yetakchilar har chorak yakuni bo'yicha oylik ish haqining **50 foizigacha** miqdorda mukofotlanadi.

Uy-joy muammosi hal etib beriladi

Boshqa hududlardan kelib o'z faoliyatini olib borayotgan yetakchi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha bo'lgan miqdorda turar joy jara to'lovi qoplab beriladi;

yil yakuni bo'yicha o'ziga birlashtirilgan hududda yuqori natijalarga erishgan yetakchilarga ipoteka krediti asosida sotib olinayotgan uy-joy qiymatining **50 foizi miqdorida**, biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda PF-33-son farmoniga muvofiq belgilangan uy-joy hisoblangan qiymatining 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda subsidiya beriladi.

Milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi

Ish faoliyati natijalariga ko'ra yetakchilar Milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi, bunda ushbu yetakchilar tanlovsiz to'g'ridan-to'g'ri yuqori lavozimlarga o'tkazilishi mumkin; ikki yillik mehnat faoliyati natijalariga ko'ra yetakchilarning lavozimini oshirish yuzasidan vazirlik va idoralar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taklif kiritiladi.

Yetakchi sifatida ishga qabul qilingan shaxslarning harbiy va maxsus unvonlari saqlab qolinadi, yetakchi sifatidagi ish staji navbatdagi harbiy va maxsus unvonlar olishda hisobga olinadi, shuningdek, ularga oldingi ish joyiga qaytgani qonunchilikda belgilangan barcha imtiyozlar tatbiq etiladi.



Omonjon AZIPOV,

tadbirkor.

– 1995-yilda tug'ilganman. Shu paytgacha ish izlab qayerga murojaat qilishni ham, kimdan yordam so'rashni ham bilmadim. Lekin tirikchilik, rozg'or tebratish uchun ishlash kerak edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan "Yoshlar daftari" tashkil qilinganini eshitib, shahar hokimligiga murojaat qildim. Meni u yerdan Yoshlar ishlari agentligiga jo'natishdi. Yoshlar ishlari agentligi menga ko'p ishlarni taklif qildi. Avvaldan tadbirkorlik, issiqxonachilikka qiziqqanligim uchun menga kredit olishda yordam berishlarini so'radim.

Ular menga 30 million so'm bank krediti ajratib berishdi. Bu pulga issiqxona qurib, poliz ekinlarini ekdim. Pomidor-dan 60 million, badringdan 35 million so'm foyda ko'rdim. Foydadan "Damas" avtomobilini sotib oldim. "Temir yordamchi" hozir uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qilyapti.

Yoshlar ishlari agentligidan juda xursandman. Chunki bu dargohga faqat o'zimga ish izlab borgan edim, lekin butun oilam bilan ishli bo'lib qaytdim!

Yurtimizda yoshlarga ko'p imkoniyatlar yaratilyapti. Ulardan to'g'ri va umumli foydalanish kerak. Oddiy dehqonchilik yoki boshqa hunar bilan shug'ullangan yoshlar faoliyati orqasidan ham o'ziga, ham yurtimizga foyda keltiradi.

MAHALLA RAISIGA “QANOT”MIZ

Davlatimiz rahbari mahalladagi yoshlar yetakchisi va hokim yordamchisini oqsoqolning “ikki qanoti”ga qiyosladilar. Darhaqiqat, bu lavozim egalari yordamida yurtimizdagi barcha o’g’il-qizning bandligini ta’minlash, orzu-istaklarini ro’yobga chiqarish yanada tezlashadi.



Yaqinda Prezidentimiz tumani-mizga tashrif buyurgan chog’da biz, yoshlar vakillari bilan suhbat qilib, bu lavozim nima uchun joriy qilingani, bizdan qanday natijalar kutayotganini tushuntirib berdilar. Jumladan, yoshlar orasida jinoyatchilik sodir etilish holatlari tez-tez ko’zga tashlanayotgani, bu eng og’riqli nuqtalarimizdan biri ekanini alohida ta’kidladim. 18-30 yoshdagi fuqarolar boshi berk ko’chalarga kirib qolayotganini, shu davrda yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlashga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga harakat qilishimiz kerakligini ta’kidladim.

Bu tavsiyalardan keyin men o’z oldimga yangi rejalar tuzib oldim. Avvalo, yoshlar muammolari hamda takliflari, ularni qiziqtiradigan soha va yo’nalishlar bo’yicha xatlov qilishga kirishdim.

Yoshlar balansini shakllantirish orqali mahallamizda 1144 nafar o’g’il-qiz yashayotganini aniqladim. Mahalla yoshlarini tavsiya etilgan “5+1” yondashuvi asosida o’rganib, ish va ta’lim bilan bandligini ta’minlash, oilaviy, ijtimoiy hamda salomatlik holati bo’yicha toifalarga ajratdik.

Natijada mahallada 32 nafar yosh ishsiz ekani ma’lum bo’ldi. Hozir ularning 16 nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o’qityapmiz. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoshlar bilan suhbatlashdik, ularni qiyalayotgan muammolarni o’rgandik. Shartnoma asosida tahsil olayotgan o’quvchi-talabalar orasida kontrakt pulini to’lashga qiyalayotganlarini “Yoshlar daf-tari”ga kiritib, shartnoma pullarini to’lashga ko’maklashyapmiz.

Yoshlar bekor yurishi turli ko’ngilsiz hodisalar sodir etilishiga sabab bo’lib qoladi. Ularning bo’sh vaqtini unumli tashkil etish maqsadida kitobxonlik, san’at va madaniyat, sport to’garaklariga jalb qildik. Shu paytgacha mahallada 6 ta to’garak bor edi. Hozir ular sonini 13 taga yetkazdik. To’garak mashg’ulotlariga 370 dan ortiq yoshlarni jalb qilganmiz. Shaxmat-shashka, mini-futbol, tikuvchilik, zardo’zlik, sartaroshlik kabi qator to’garaklar shular jumlasidan.

Mahallamizda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ko’magida iqtisodiyot sohasida o’qish istagidagi yoshlar uchun bepul o’quv kursi ochildi. Unda saralab olingan 45 nafar yoshga haftada uch marta sohaning malakali mutaxassislari dars o’tmoqda.

Mahallamizdagi 18 yashar A’zam Toirovning mahorat bilan futbol o’ynashi e’tiborimni tortdi. U bilan suhbatlashib, futbolga qiziqishini, ammo biror to’garakka qatnashmasligini bildim. Oilasi bilan suhbatlashdim. Ularning aytishicha, farzandi mablag’ yetishmasligi sabab futbol to’garaklariga bora olmagan. Bu masala yuzasidan “Paxtakor” futbol klubiga murojaat qildim. Ular bolaning mahoratini o’z ko’zlarini bilan ko’rgach, javob berishini aytishdi. A’zamjon sinovlardan muvaffaqiyatli o’tib, birinchi urinishda “Paxtakor” futbol klubi tarkibiga qabul qilindi.

“Bir nuroniy — 10 nafar yosh” tamoyili asosida profilaktik ro’yxatda turgan, tarbiyasi og’ir yoshlarni mahallamiz nuroniy-lariga biriktirdik. Mart oyida Milliy gvardiyaning hududiy boshqar-

▶ SHU PAYTGACHA MAHALLADA 6 TA TO’GARAK BOR EDI. HOZIR ULARNING SONINI 13 TAGA YETKAZDIK. TO’GARAK MASHG’ULOTLARIGA 370 DAN ORTIQ YOSHLARNI JALB QILGANMIZ.



masi bilan hamkorlikda ro’yxatda turadigan yoshlarning 39 nafarini bir haftaga harbiy poligonga olib borishni rejalashtiryapmiz. Ular harbiylar hayoti bilan tanishib, shu muhitda yashab, o’zlariga kerakli xulosalar chiqarishiga ishonaman. Bu ham ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Agar bu yoshlarda harbiy xizmatni o’tash istagi paydo bo’lsa, ularni harbiy xizmatga jo’natmoqchimiz. Harbiy xizmat uchun to’lov subsidiya asosida to’liq qoplab beriladi.

Hozirgi kungacha mahallamizda ikki marta yoshlar festivalini o’tkazdik. Buni shunchaki hisobot uchun emas, balki yoshlar bilan yuzma-yuz muloqotga kirishish, g’oyalari, qiziqishlarini o’rganish uchun tashkil qildik. Birinchi festivalda 300 nafardan ziyod yosh ishtirok etgandi, ikkinchisida 600 nafar o’g’il-qiz qatnashdi. Festivalga vazirlik va mahalliy hokimlik mutasaddilari, Milliy gvardiya vakillari ham taklif etildi.

**Islombek JODIQOV,
Yangiheyot tumanidagi Do’slik
mahallasi yoshlar yetakchisi**





Ma'mura AZIMOVA,

Toshkent
shahar
Yangihayot
tumani
"Do'stlik" MFY
raisi:

— Tinchlik mahalladan boshlanadi. Mahalla obod, aholisi xotirjam bo'lsa, yurtimiz tinch bo'ladi. Prezidentimiz mahallamizga tashrifi chog'ida "Siz o'z vazifangizni to'g'ri bajarsangiz, men mahallani xotirjam aylanishim mumkin, buning uchun sizga ham iqtisodchi, ham siyosatchi ikkita qanot berdim. Endi ishlaringiz yengillashadi, sizlarning yosh navqiron yordamchilaringiz bor", deya bizga tavsiyalar berdi. Haqiqatan ham, bu ikkita yoshlar vakili yonimizga kirgach, ishimiz ancha yengillashdi.

Avval tarbiyasi og'ir, ishsiz yoshlar muammolarini ham biz hal qilishimiz kerak edi. Endi har bir masalaning egasi bor. Shu sababli bugun mahallamizda o'zgarishlar katta.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan sport bellashuvlarida barcha yoshlar o'z xohishi bilan ishtirok etyapti. Ko'pincha yoshlar soat 18:00 dan 23:00 ga qadar nazoratsiz qolishadi. Mahallamizda ayni shu vaqt oralig'ida sport musobaqalari tashkil etyapmiz. Ota-onalar ham bundan xotirjam bo'layotir.

Uyda o'tirib daromad qilish istagida bo'lgan yosh oila bekalarining ham fikrlari tinglanib, ularga yordam qo'li cho'zilyapti. Subsidia asosida tikuv mashinalari berilib, moliyaviy ahvolini tiklab olishga imkoniyat berilmoqda. Sartaroshlik, hunarmandlik qilish istagida bo'lganlar kasb-hunarga o'qitilib, sertifikat olgach, biror ish o'rniga ega bo'lyapti.



Kenja HAQNAZAROV,

Toshkent
shahar
Yangihayot
tumani "Do'stlik"
MFY nuroniysi:

— Biz, nuroniylar kelajak avlodga hayot tajribamizni o'rgatishimiz, o'g'itirimizni berishimiz kerak. Shu ma'noda, mahallalarda "Bir nuroniyga 10 nafar yosh" loyihasi joriy etilishi ayni muddao bo'ldi.

Aholimizning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Menga tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan 10 nafar yoshni birkatirishdi. Ular bilan birga ishlab, xatti-harakatini kuzatdim, yaqindan tanishdim. Ularni o'z nabiramdek ko'raman.

Bo'sh vaqt topdim deguncha ularning maktabiga borib, sinf rahbarlari, maktab jamoasidan ular haqida so'rayman. Hatto darslarida ham qatnashaman. Maktabdagi fikriga qaraganda, ularda yaxshi tomonga o'zgarish bo'lyapti.

Bugun ko'pchilik yoshlar asosiy vaqtini foydasiz bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarga sarf qilmoqda. Ularni bu yo'ldan qaytarib olishimiz zarur. Buning uchun ularning vaqtini band qilish kerak. Shu ma'noda, mahallamizda turli sport musobaqalarini tashkil etyapmiz.

Mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimi endigina joriy etildi.

Ularning ishini yo'lga qo'yib olishi sal qiyinroq bo'ladi. Sababi ularning andoza oladigan, ko'rib o'rganadigan kishisi yo'q. Shu bois o'zlarining tasavvuri, fidoyiligi, tashabbuskorligi bilan o'mak bo'lib, zimmasidagi vazifalarni bajarishi kerak. Bunda ulardan psixolog bo'lish, yoshlarning nigohidan fikrini anglash talab etiladi. Ular mahalla yoshlari bilan aka-uka, opa-uka yoki aka-singil, umuman, do'st tutinib olishi lozim.

Ba'zi yoshlar o'z tuyg'ularini, fikr va qiziqishlarini ota-onasiga aytolmaydi. Yoshlar yetakchisi ular bilan do'st tutinsa, yoshlar ularga o'z tashvishlarini ishonib aytishi mumkin. Shu bois bu lavozimga aynan yoshlar vakillaridan saylab olindi, deb o'ylayman.

Mahallamizga yoshlar yetakchisi bo'lib tayinlangan Islomjoniga ham o'z maslahatlarini berib boryapman. Unga yoshlarda, avvalo, vatanparvarlik hissi uytish kerak, deb maslahat beraman. U o'z vazifalarini to'g'ri anglab yetgan, intiluvchan yigit. O'ziga yuklatilgan vazifalarni as-toydil uddalashiga ishonaman.

Iqbol PARDAYEVA
yozib oldi

Dilfuza SHARIPXONOVA,

Toshkent
shahar
Yangihayot
tumani
"Do'stlik" MFY
fuqarosi:

— Oliy ma'lumotim bo'lsa-da, vaqtincha ishsiz edim. Bolalarim yosh, uy ishlaridan ortolmadim. Bilasiz, har bir ayol o'zining jamg'armasi bo'lishini istaydi. Chunki mayda-chuyda narsalarga had-deb turmush o'rtog'imizdan pul so'rayvermaymiz.

Keyin uyda o'tirib pul topish yo'lini qidirib boshladim. Qo'limda tikuvchilik hunarim bor. Ammo tikuv mashinasi olishga mablag'imiz yo'q edi. Shu bois tuman hokimligiga murojaat qildim. Hokimiyatdagilar har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilganini, ularga borib uchrashishim kerakligini aytishdi. Men mahallamizga kelib, Islom Jodiqov bilan uchrashdim va vaziyatni tushuntirdim.

U menga subsidia asosida tikuv mashinasi olib berdi. Hozir tikuvchilik bilan shug'ullanyapman. O'zimga yarasha mijozlarim bor. Avvaliga kuniga 20-30 ming so'm topdim. Keyin 40-50 ming so'mga chiqdi. Hisob-kitob qilsam, hozir kuniga 90 ming so'mgacha daromad ishlayotgan ekanman.

Keyinchalik mijozlarim ko'paysa, ishimni kengaytirishim mumkin. Buning uchun mahallamiz yoshlar yetakchisi hamda hokim yordamchisi joy va mablag' tomonlama yordam berishini aytgan.

“ Ba'zi
yoshlar o'z
tuyg'ularini, fikr
va qiziqishlarini
ota-onasiga
aytolmaydi.

• Kelgusi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini to'liq budjetdan qoplab berish uchun har yili **200 milliard so'm** mablag' yo'naltiriladi;

• **2022—2026-yillarga** mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi doirasida Toshkentda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlari tashkil etiladi;

• Barcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun **7 yil muddatga** foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinadi.

“BIZNI HAM ESHITING:

yosh talaba onalar oliy ta'limdan rozimi?”

DAVLAT STATISTIKA
QO'MITASI MA'LUM
QILISHICHA O'ZBEKISTON
OTMLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN
571,500
NAFAR TALABANING
260,000
NAFARINI QIZ BOLALAR
TASHKILETADI.

Tahmin qilib aytish mumkinki, talaba qizlarning har **5** tadan **3** tasi oilali va ularning deyarli hammasi bir farzandning onasi bo'lib ulgurgan.



“O'qishdan haydalisim mumkin” “Uddalay olmasam kerak”



Feruza,
talaba

“Yosh onaman, bir vaqtning o'zida OTMda tahsil olaman. Kunduzgi ta'lim shaklida o'quv mashg'ulotlariga qatnashishga qiyinalganim sabab o'qishimni sirtqi ta'lim shakliga ko'chirish haqida ham o'ylab turibman. Farzandli bo'lishimdan avval darslarda qatnashishga qiyalmas edim.

Biroq chaqalog'im tug'ilgach vaziyat o'zgardi, har kuni kimdir bolamga qarab tursa, o'qishga borib kelish haqida o'ylayman. Darslarda qatnasha olmayotganim, topshirilmagan uy vazifalarim ko'payib ketayotgani, davomat ko'rsatkichlarim pasaygani uchun bir necha marotaba ogohlantirish ham oldim. Agar shunday davom etaversam, o'qishdan haydaliib ketishim ham mumkin ekan. O'zimga qolsa, mazza qilib o'qishni, darslarda faol qatnashishni xohlayman, ammo gap farzandim haqida ketar ekan.

Yosh ona sifatida shunday taklif berishni anchadan buyon o'ylab yurar edim: oliy ta'lim muassasalarida yoki muassasa atrofidagi yaqin hududda yosh bolalar uchun bog'chalar tashkil etilsa, juda yaxshi bo'lar edi. Albatta, bu pulli bo'lishi mumkin, mayli shunday bo'lishiga ham roziman, faqat farzandim ishonchli qo'llarda bo'lsa va avvalgidek o'qishga qaytsam bas!”



Zumrad
ZARIPOVA,
O'ZJOKU talabasi

“O'zim hali oila qurmaganman, lekin talabalik davrida oila qurgan ko'p qizlarni taniman: qarindosh opa-singillarim, kursdosh dugonalarim.

Kuzatishlarim natijasida shunga ishonch hosil qildimki, o'qish va oilani birdek uddalash, ayniqsa, farzand ko'rgandan so'ng qiyin ekan. Oilali kursdosh dugonalarim misolida aytishim mumkin, darslarda uxlab qolishadi, uyga berilgan vazifalarni bajarishga ulgurmay, ustozlardan ko'p gap eshitishadi. Xullas, darslardan chetlashib, o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli pasayib ketadi.

Yana bir tanishim birinchi kursda turmushga chiqqan edi, hozir ikkinchi kursda o'qiyotgan bo'lsa ham darslarga deyarli kelmaydi, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini faqat kursdoshlarining yordami bilan topshira oladi. Chunki unda, afsuski, yetarli bilim yo'q. Darsga kelsa ham, butun xayoli bolasida bo'ladi, bolasi

kasal bo'lib qolgan vaqtlari tezroq uyga ketish uchun shoshiladi, darsda ham diqqatini jamlashi qiyin bo'lib qolgan. Undan kelajakda qanday kadr yetishib chiqishi haqida tasavvur qilib ko'rish qiyin emas.

Aytmoqchiman-ki, har narsaning o'z vaqti bo'ladi, 4 yillik talabalik davrini faqat o'qish, o'z ustida ishlash uchun ajratsak, ta'lim uchun sarflagan vaqtimiz ham mablag'larimiz ham bekor ketmagan bo'ladi.

O'zimga kelsak, universitetdagi ta'limni tugatmagunimcha turmushga chiqish rejamda yo'q. Hozir darslarda qatnashish, kutubxonada qo'shimcha o'qib-izlanish va xorijiy til kurslariga qatnash bilan butun bir kunim o'tib ketadi. Hatto, ba'zan uy ishlariga yordam berishga ham vaqt topa olmay qolaman. Lekin nazariyda talabaning hayoti shunday bo'lishi kerak, o'qishdan chalg'ituvchi har qanday ishlarni vaqtinchalik chetga surib turish kerak”.

“Bugun darsga borib kelgunimcha kimdir bolamga qarab turarmikin? Yoki akademik ta'til olish uchun ariza yozsammikin? Yana bir yo'li ta'lim shaklini sirtqiga ko'chirish...” ko'pchilik yosh bolali onalarning xayolidan shu fikr o'tgan bo'lishi haqiqatga yaqin.

Bilim olish uchun harakat qilish-eng savobli amal, onalarning burch va mas'uliyatlari bilan birga bu xayrli ishning boshini tutganlar har qanday davrda olqishlansa arziydi.

Ilm yo'lida mehnat qilayotganlar ona bo'lgach ayrim qiyinchiliklarga duch kela boshlashadi: darslarda avvalgidek faol qatnashish, kutubxonada soatlab dars qilish, o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib-izlanishlar farzandi haqidagi tashvishlar bilan almashadi.

Oliy o'quv yurtidagi dars mashg'ulotlari va uy yumushlariga qo'shimcha sifatida yosh onaga yangi vazifalar yuklana boshlaydi, kichkina chaqaloq ma'lum vaqt davomida onasining alohida e'tibori, parvarishiga muhtoj bo'lib qoladi. Ayrimlar huddi shu vaqtda mentalitet yoki shunchaki uddalay olmaslikdan qo'rqqani uchundir balki, ikki yo'ldan birini tanlashga majbur bo'ladi: oila yo' o'qish.

Chetdan kuzatib tahmin qilish yoki fikr bildirish oson, mavzu yuzasidan shu muammoning qarshisidagi va atrofdagilarning fikrini bilish uchun kichik so'rov-noma o'tkazdik.


“Muammolar bo'lmasligiga ishonaman!”

Anora ABDULLAYEVA,
Toshkent shahri

“Turmush qurganimga yarim yildan oshdi, to'ydan avval tibbiyot kollejida olgan ta'limimni OTMda davom ettirish niyatim bor. Oila qurganimdan keyin bunga turmush o'rtog'im ham rozilik bildirdilar, shu yil talaba bo'lish niyatida DTM imtihonlariga tayyorgarlikni boshladim. O'qishga kirganimdan keyin menda oilaviy masalalar yoki farzand bilan bog'liq muammolar bo'lmasligiga ishonaman, chunki bu borada turmush o'rtog'im meni doim qo'llab-quvvatlaydi.”



**Oila ham,
bilim olish
ham – muqaddas
tushunchalar,
bularning o'z o'rnini va
vaqti borligi ayni
haqiqat**



Millatimizning ilmga chanqoq, shu bilan birga onalik martabasiga erishgan ayol-qizlari orasida o'tkazilgan so'rovnomada ularning fikr-mulohaza va takliflariga quloq tutganimizda shu ma'lum bo'ldiki, bugun ular nafaqat oilasi, butun jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj.

Ehhh, ayni shu muammo qarshida turgan vaqtimiz bizga Morion Talbotning shijoati juda kerak bo'lyapti-da.

"Morion Talbot kim?" deysizmi?

1858-1948-yillarda yashab o'tgan bu ayol qariyb 30 yil davomida Chikago universitetida dekan sifatida va XX asr boshlarida ayollarning oliy ma'lumot olishi bilan bog'liq nufuzli davlat tashkilotida ish yuritadi.

1882-yil yosh Morion hali talabalik davridayoq ustozi Ellen Swallow Richards bilan universitetdagi ayollar assotsiatsiyasiga asos soladi. Oradan vaqt o'tib, Chikago universitetida ham bu xayrli ishni davom ettirib, talaba yoki professor-o'qituvchi bo'lgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, huquqlari poymol qilinishiga yo'l qo'ymasdan, teng huquqli ta'lim imkoniyatlarini ishlab chiqdi.

Asosiy muammoga qaytsak, yosh bolali talaba onalar kelajakda Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi uchun o'z hissalarini qo'shishni istashadi, ammo yuqoridagi kichik sabablar bilan o'z maqsadlaridan vaqtinchalik yoki butunlay voz kechishga majbur bo'lib qolyaptilar.

Ularni bartaraf etish mumkin, bunda biz xorijiy o'quv yurtlari tajribasiga tayansak nur ustiga nur!

O'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlardan biri sifatida shuni aytish mumkinki, ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda talaba turmush qurgach homilador bo'lsa, farzandi tug'ilgach akademik ta'til olish yoki sirtqi shakliga o'tkazish haqida o'ylab, bosh og'ritmaydi.

Chunki bu kabi masalalarning allaqachon yechimi topilib, amaliyotga tatbiq etilgan.

Misol uchun, Angliyadagi "York" universitetining rasmiy saytida keltirilishicha ayolning farzand ko'rgach va ungacha bo'lgan davri uchun maxsus siyosat ishlab chiqilib, 2014-yil universitetning maxsus qo'mitasi tomonidan tasdiqlangandan buyon, amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llab kelinmoqda.

Universitet hududida tashkil etilgan talabalarining bolalari uchun maxsus va sifatli bog'chalarning borligi sabab ham onalar dars jarayonlarida ishtirok etishda qiyinchilikka duch kelishmaydi.

Buyuk Britaniyaning Lester universitetida esa, talaba farzandli bo'lgach o'z xohishiga ko'ra bir yillik yoki ikki haftalik ta'til olishiga ruxsat beriladi. Moslashuvchan sharoitlar ishlab chiqilgani sabab ko'pincha uzoq muddatli ta'tilga ehtiyoj tug'ilmasligi ham mumkin.

Yuqoridagi ikki oliy o'quv yurtidagi kabi sharoitlarga qo'shimcha ravishda Kembrij universitetida har bir talaba dekanatlarini xabarador qilgan holda, maxsus tashkil etilgan emizish xonalardan istalgan vaqt foydalanishlari mumkin.

O'zbekistondagi qonunchilikda bu haqida nima deyilgan? Bu haqida biroz keyinroq o'xtalamiz. Hozir esa e'tiboringizni yana bir muhim jihatga qaratsak.

Har qanday qo'llab-quvvatlash, avvalo oiladan boshlanishi zarur. Bugun bo'lajak oila boshliqlari - yigitlarning fikri qanday?

Yigitlar nima deydi?!



**Eldor
ABDULLAYEV,**
O'zJOKU talabasi.

Turmushdan keyin erkak kishining ayoli o'qishi yoki ishlashi uchun qarshilik qilishi, butun oilaviy tashvishlarni rafiqasining zimmasiga tashlab qo'yishi jamiyatdagi eng xunuk stereotip. Bunga qarshi kurashish va parchalash vaqti allaqachon kelgan, nazarimda.



**Kamoliddin
AZZAMOV,**
talaba.

Farzand masalasiga kelsak, u ikkimizniki. Demakki, teng mas'ul bo'lamiz. Kimnidir butunlay band qilishi emas, ikkimizning mehr va e'tiborimizni his qilishi kerak bo'ladi, bolamiz. Demak, bu vaziyatda ham o'z juftimning istaklari uchun imkoniyat berardim. Axir, shuncha odam o'qib, ishlayapti-ku, farzandi yosh bo'la turib.

Ko'rib turganingizdek, ertamiz egalari (bo'lajak) turmush o'rtoqlarini qo'llab-quvvatlashga tayyor turganliklari quvonarli hol. Ammo yechim uchun buning o'zi, afsuski, yetarli emas. Bu uchun OTM va mutasaddi tashkilotlarning o'zaro hamkorlikda qilishlari kerak bo'lgan ishlari juda ko'p.

Mamlakatimizda bu borada talabalarining og'irini yengil qilish, qo'llab-quvvatlash uchun maxsus qonun-qoidalar yo'q emas. Ulardan biri, Vazirlar Mahkamasining 03.06.2021-yildagi 344-sonli qarori bo'lib, unga muvofiq homiladorlik, farzandini dunyoga keltirish va parvarishlash vaqtida talaba akademik ta'til olish huquqiga ega.

E'tiborli jihati shundaki, akademik ta'til o'qishdan chetlashtirishni anglatmaydi (Batafsil, Lex.uz saytida).

Yoki yana bir tanlov: agar talaba ona tahsil olayotgan mutaxassislik yo'nalishida sirtqi ta'lim shakli mavjud bo'lsa, o'qishni ko'chirishi ham mumkin.

Ammo bizning oliy o'quv yurtlarimizda ham chet el standartlari bilan bellasha oladigan, kerak bo'lsa ularni ortda qoldirishi mumkin bo'lgan yana yangi qulayliklarni yaratish vaqti kelmadimikin?

Bunda kim ko'proq tashabbus ko'rsatishi lozim?

Masala yuzasidan bir nechta oliy o'quv yurtlarining o'quv ishlari bo'yicha bo'limlariga murojaat qilganimizda, bu muammoning yechimi OTMga emas, vazirliklar qarori va tasdiqlashiga bog'liq ekanligini bildirishdi.

Ammo bu uchun oliy o'quv yurtlarining ham tashabbus ko'rsatishi, muammolarning yechim topishiga turki bergan bo'lar edi, nazarimda. Axir muammolarni o'zimizdan boshqa hech kim, hatto yuqorida esga olganimiz-Morion Talbot ham hal eta olmaydi-ku?!

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
O'zJOKU talabasi

"Suyanchiq bo'lganman"

Davron,
Toshkent viloyati

"Turmush qurganimizda ayolim, 3-kursda tahsil olar edi, haftada 6 kun ishda bo'lganim sabab dam olish kunini uyda o'tkazishga harakat qilardim. Rafiqam bilan toki hammasi yo'lga tushib ketmagunicha har qanday to'y-tomoshalar, do'stlar davrasidan vaqtincha cheklanishga kelishib olganimiz esimda. Yakshanba kuni erta tongda qilinadigan uy yumushlarini bo'lishib olar edik, men ham, ayolim ham hafta davomida uyda kam bo'lganimiz uchun yumushlar yig'ilib qolar edi. Lekin bu bizga muammo bo'la olmadik, ayol kishini avaylab, kelajak avlodimning tarbiyachisi deb qarasangiz, hamma narsani bir o'ziga tashlab qo'ymasangiz, hatto farzand bilan ham oliy ta'lim olish mumkin. Ayolim magistraturani tamomlayotganda qizalog'imiz 3 yoshga to'lgan edi, qiyinchilik kimda bo'lmaydi deysiz, bizda ham ko'p bo'lgan, shunchaki bir-birini qo'llab-quvvatlash bilan har qanday muammoni ijobiy hal etish mumkin, men sizga aytsam".

"Huquqlar kesishuvchi nuqta"

"Masalaning bu qadar jiddiy va qisman chigal tus olib borayotganiga yana bir sabab-huquqli jihatlaridir.

Har kim bilim olish va erkin kasb tanlash, turmush qurish va farzandli bo'lish huquqiga ega. Ulardan to'la-to'kis foydalanigan ayol aynan shu huquqlar o'zaro kesishgan nuqtada muammoga duch kelayotgani va ularga qarshi yolg'iz kurashishga majbur bo'layotgani uchun ham muammoga imkon qadar terzoq yechim topish kerak".

Nega ta'til olmaysiz?

"Akademik ta'til olish mumkinligi haqida ko'pchilik talabalar to'liq va to'g'ri tushunchaga ega emas. Qonuniy jihatdan o'rganib chiqqanlarning aksariyati esa, bu tanlovdan voz kechishadi. Sabablar turli xil va jon boshdek ta'til tugab, yana o'qishga qaytgani kontrakt-shartnoma summasi ko'tarilib ketgan bo'lishi mumkin, ta'tildan avval olingan bilimlar ma'lum vaqtdan so'ng xotiradan ko'tarilishi ham xavotir olishga arziqli sabab. Chunki ta'til davomida yosh ona olingan bilimlarni mustahkamlab turish uchun qo'lga kitob olishning qiyin masalaga aylinishi haqiqatdan uzoq emas. Yosh ona bolasi-ning tarbiyasi bilan band bo'lib, o'qishga ishtiyoi so'nishi yoki oila a'zolarining fikridan qaytib, "aynib" qolishi ham bir taxmin".

"Tadbirkorlar uchun ham yaxshi imkoniyat"

Agar OTM hududida bog'chalar tashkil etish iloji muammo bo'lsa, yaqin atrofda bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda, o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagida bo'lganlar uchun imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Faqt bu bog'chalar oddiy emas, maxsus bo'lishini hisobga olib, kichkina chaqaloqlar parvarishi uchun ham alohida sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur, chunki talabalarining aksariyati uyida bu sharoit yetarli darajada mavjud bo'lmagani uchun shunday bog'chalarga ehtiyoj sezishayotganini bildirishgan.

Eng asosiy jihati, imkon qadar narxlarini hamyonbop bo'lishini e'tibordan qochimasmalik zarur. Bunda OTM budjetidan ham maxsus bog'chalar uchun ma'lum bir miqdordagi mablag'ning ajratilishi (aytaylik, subsidiya shaklida) sixining ham, kabobning ham kuy-masligiga zamin yaratgan bo'lar edi.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti jamoasi



Butun O'zbekiston xotin-qizlarini, shu jumladan, o'qituvchi va murabbiy ayollarimizni kirib kelgan bahor ayvomi hamda 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlaydi.

Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy farovonlik, yosh avlodga bilim berishdek sharafli ishda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qoladi.

Qutlaymiz!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-martdagi "8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan yoshlar tashkilotlarida faol mehnat qilib kelayotgan quyidagi hamkasblarimiz munosib taqdirlandi:

1 darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan **Shodieva Ra'no Odilovna** – O'zbekiston yoshlar ittifoqining Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi direktori.

"Kelajak bunyodkori" medali bilan **Raxmankulova Go'zal Rixmat qizi** – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Yangiheyot tumani bo'limining "Iqbol" mahalla fuqarolar yig'indidagi yoshlar yetakchisi, Toshkent shahri.

Xoliqova Tursunoy Ibrogim qizi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Kasbi tumani bo'limining "Jizza" mahalla fuqarolar yig'indidagi yoshlar yetakchisi, Qashqadaryo viloyati.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol Pardayeva

Musahhihlar:
**Shahribonur Rahmatova,
Qirmizoy Hakimova**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teritil va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narda, Buyurtma № 355, Adadi – 10500. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

